

KOMPYUTER LINGVISTIKASINI O'QITISHDA TAMOYILLARDAN FOYDALANISH

O.B.Mamirov,

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18695676>

Annotatsiya. Maqolada kompyuter lingvistikasini o'qitishda darslarni samarali tashkil etish uchun asosiy didaktik tamoyillar keng va batafsil yoritilgan. Har bir fan kabi, tilshunoslik va kompyuter lingvistikasini o'qitishda ham tamoyillar asosiy vosita hisoblanadi. Didaktik tamoyillar orqali o'quv jarayoni talabaning tarbiyasi, bilim berish va rivojlantirish, ilmiy asosga tayangan tushunarli o'qitish, tizimlilik va izchillik, nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish, ongli va faol o'zlashtirish, mustaqil faoliyat va ko'rgazmalilik kabi jihatlarni bilan ta'minlanadi.

Maqolada, shuningdek, o'quv materialini kundalik hayotiy voqealar bilan bog'lash, mavzuni amaliy va nazariy jihatlari bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning usullari ko'rsatildi. Har bir tamoyilning amaliy qo'llanishi, mavzuni o'rganish jarayonida qanday natijaga erishishini tushuntirish bilan birga, mavzuni esda saqlash va o'zlashtirish jarayonini samarali qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, tizimlilik, izchillik, aniqlik, nazariya, onglilik, ilmiylik, tushunarlilik, ko'rgazmalilik.

Аннотация. В статье широко и подробно рассматриваются основные дидактические принципы эффективной организации уроков по компьютерной лингвистике. Как и в любом другом предмете, принципы являются главным инструментом в преподавании лингвистики и компьютерной лингвистики. Благодаря дидактическим принципам образовательный процесс обеспечивается такими аспектами, как воспитание учащихся, передача и развитие знаний, понятное обучение на научной основе, систематичность и последовательность, сочетание теоретических знаний и практических навыков, осознанное и активное освоение, самостоятельная деятельность и демонстративная способность.

В статье также представлены методы увязывания учебного материала с событиями повседневной жизни, сочетания предмета с практическими и теоретическими аспектами, формирования у учащихся самостоятельного мышления, творческих подходов и практических навыков. Практическое применение каждого принципа, наряду с объяснением результатов, достигаемых в процессе изучения предмета, делает процесс запоминания и освоения материала эффективным.

Ключевые слова: Образованность, системность, последовательность, точность, теория, сознательность, научность, понятность, доказуемость.

Abstract. The article broadly and in detail covers the main didactic principles for the effective organization of lessons in teaching computer linguistics. As in every other subject, principles are the main tool in teaching linguistics and computer linguistics. Through didactic principles, the educational process is provided with such aspects as student education, imparting and developing knowledge, understandable teaching based on a scientific basis, systematicity and consistency, combining theoretical knowledge and practical skills, conscious and active mastery, independent activity and demonstrativeness.

The article also shows methods for linking educational material with everyday life events, combining the subject with practical and theoretical aspects, and forming independent thinking, creative approaches and practical skills in students. The practical application of each principle, along with explaining what results are achieved in the process of studying the subject, makes the process of memorizing and mastering the subject effective.

Keywords: Education, systematicity, consistency, accuracy, theory, consciousness, scientificity, comprehensibility, demonstrability.

Kirish. Ta'lim bosqichida har qanday fanni o'qitishda o'ziga hos tamoyillar mavjud. Shunday ekan umumdidaktik tamoyillar ham kompyuter lingvistikasini chetlab o'ta olmaydi. Har qanday tilshunoslik sohalarini o'qitishda ham tamoyillarga tayangan holda darslar tashkil qilinsa darsdan kutilgan natija ham yaxshi bo'ladi. Ushbu faslimizda ham aynan kompyuter lingvistikasini o'qitishda didaktik tamoyillarning o'zni haqida ma'lumotlar berilgan. Oliy ta'lim muassasasida, umumta'lim maktablarida, o'tiladigan hamma predmetlar uchun umumiy bo'lgan didaktik tamoyillar: talaba ga tarbiya, ma'lumot berish va rivojlantirish; ilmiylik va tushunarliklik; tizimlilik va izchilik, nazariya va amaliyotning aloqadorligi; ongliklik va faollik; mustaqillik; o'qitishning talabalar va talabalar saviyasiga mos kelishi; ko'rgazmalilik va individual munosabatda bo'lish kabilardir. Dars jarayonida ushbu tamoyillarga amal qilinsa dardan kutilgan natija samarali bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Prinsip (tamoyil) – lot. Qoida, asos ma'nolarini anglatadi. Ta'limning prinsiplari maktablar oldiga qo'yilgan talablardan kelib chiqadi. Uni muvaffaqiyatli qo'llash shaxsni har tomonlama kamol toptirishda ahamiyati katta. O'qitishda prinsiplarga amal qilish dars samaradorligini ta'minlaydi, ko'zlangan maqsadga erishishga zamin bo'ladi. (T.B.,Sh. M.,Z.T. 54-bet)

Ta'lim-tarbiya va rivojlantirishning uyg'unligi tamoyili. Ta'lim va tarbiya mosligi umumiy ta'lim maktablarining asosi sanaladi. "Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga yetkazadi". (A.Sent Ekzyuperi.fran.yozuvchisi, uchuvchi). Bu orqali talabalar ma'naviy, g'oyaviy rivojlanishning tamoyillari belgilanadi. Chunki fonetika o'rganilganda talaffuz me'yorlarini o'zlashtirish, qofiyadosh so'zlar hosil qilish, she'riyatga qiziqtirish, badiiy tarbiya berish imkoniyatlarini yaratsa, tovushdosh, ohangdosh, qofiyadosh so'zlar topish badiiy ijodga o'rgatish usullaridan biri sanaladi.

Leksikologiyada ma'no nozikligi, so'z go'zalligi kengroq his qilinadi. Unda o'z va ko'chma ma'noli, ma'nodosh, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi ma'noli, paronim so'zlar ustida nazariy va amaliy ish olib boradilar. Bu orqali ona tili va uning qudratiga muhabbat hissi tarbiyalanadi.

Mavzu uchun tanlanadigan matnlar o'rganilayotgan til hodisalariga muvofiq kelishi bilan bir qatorda tarbiyaviy ahamiyati ham bo'lishi kerak. Maktabning maqsadi, tarbiya va faqat tarbiyadir. (I,Pestalotssi shveytsariya pedagogi). "Gapning uyushiq bo'laklari" mavzusini o'tishda quyidagi matndan foydalanish mumkin. "Ustoz otangdan ulug' ", degan hikmatda olam-olam ma'no bor. Ustoz-bebaho,ulug', g'amxo'r, mehribon bir inson. Xalq o'rtasida murabbiy-ustozlar, umuman, ko'pni ko'rib, ko'pni bilgan, bilimdon, mehnatda, aql-zakovatda el orasida tanilgan, qaysi sohada bo'lmasin o'z tajribasi, bilimni boshqalarga, xususan, yoshlarga bergan kishilar ayricha e'zozlangan. Cheksiz hurmatga ustozlar o'z bilimdonliklari, bag'ri kengliklari, donoliklari, sahovatlari tufayli erishdilar". (T.B.,Sh. M.,Z.T. 56-bet)

Yoki “Ko‘chirma gap” mavzusida quyidagi matnni tavsiya qilsa bo‘ladi. Naql qilishlaricha bir ota-ona farzand ko‘rishib, Ibn Sino oldiga borishibdi. “Talaba mizning tarbiyasi haqida bizga maslahat bersangiz, toki katta bo‘lgach, el-yurtga foydasi tegadigan kishi bo‘lib yetishsin”, -deb so‘rabdi. “Farzandingiz qachon tug‘ildi”. deb so‘rabdi ulug‘ alloma. “Erta bilan tug‘ildi?” deb javob beribdi onasi. “Hozir vaqt qancha?” -yana savol beribdi Ibn Sino. “Peshin kirdi”. Ibn Sino ularga shunday javob qilgan ekan. “Ey bo‘talarim, kechikibsizlar. Talaba tarbiyasini ona qornidagi homilalik paytidan boshlash kerak edi...” .(T.B., Sh. M., Z.T. 67-bet)

Biror mavzu o‘tilayotganda kundalik voqealarni hayot bilan bog‘lash, tushunchalarni kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyatlar diqqat, fikrlash kabi psixik xususiyatlarning rivojlanishi mustaqil faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatadi. Demak, ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tamoyillar ta‘lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Metodologiya. Kompyuter lingvistikasini o‘qitishda darslar didaktik tamoyillarga asoslanib tashkil etiladi. Mavzular tizimli va izchil tarzda, oldingi bilimlar bilan bog‘lanib tushuntiriladi. Talabalar yosh xususiyatlari va bilim darajasiga mos ravishda nazariy bilimlarni amaliy mashqlar orqali mustahkamlaydi. Dars jarayonida onglilik, faoliyat va ko‘rgazmalilik yondashuvlari qo‘llanilib, talabaning mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Shu metodika talabaning bilimni chuqur o‘zlashtirish va o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari. Ilmiylik va tushunarlik tamoyili. Ona tili ta‘limining yangilangan mazmuni davlat va jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlari, fan va texnikaning taraqqiyot darajasiga doimo muvofiqlashtirib boriladi. Maktabda ona tilidan hozirgi tilshunoslikda qat‘iy hal qilingan, ilmiy asoslangan ma‘lumotlargina beriladi. (-larcha-ravish yasovchi, -lar-cha- otning nokategorial shakli. Hozircha ravish yasovchi deb qaralaveradi, yoki -la so‘z yasovchi affiks til birligi deb qaraladi. Uni turli so‘zlardan so‘z yasaganligi uchun nutq hodisasi degan qarashlar bor). Bu esa o‘zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan og‘zaki va yozma nutqda bimalol foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilimlarnigina berishni talab qiladi. O‘qituvchi til hodisalarini o‘zaro aloqa va taraqqiyot nuqtai nazaridan izohlaydi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da talab qilinganidek, yoshlarda ijodiylik, bir matnni turli usulda bayon eta olish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Shu bilan birga ularni Vatanga sadoqat, yuksak ahloq, ma‘naviyat va ma‘rifatli, mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashga imkon yaratadi.

O‘qitishning ilmiylik tamoyili o‘qituvchining hamisha ziyraklik bilan fan yutuqlarini kuzatib borishni talab qiladi. (bilan,-ga yordamchilarning vazifasining kengayayotganligi).

O‘qitishning tushunarli bo‘lishi, asosan, o‘qituvchiga bog‘liq. Sinfdagi teng yoshdagi talabalar o‘tirsa ham ularning materialni qabul qilishi bir xil bo‘lmaydi. Shuning uchun

o'qituvchi qiyin o'zlashtiradigan talabalar bilan indiviudal ishlashi kerak. Shu bilan birga har bir darsda talabalarning yoshini, sinfning darsga tayyorgarligini hisobga olish zarur. Har qanday masalalarni sinfga kiritish keoak emas. Masalan: yomg'ir (yog'mir), quloch (qo'l-och), pichoq (pich-oq) so'zlarini hozirgi til nuqtai nazaridan tub so'zlar deb qaramoq lozim. Materialning oson va tushunarli bo'lishi o'qituvchi nutq madaniyati va materialni bilishiga bog'liq.

Ilmiylik va tushunarlilik bir-birini to'ldiradigan tamoyillardir. Har bir tushuncha va atamalar ma'nosini ochib berish, har bir mashg'ulotda mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgata borish zarur. Fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish kuzatuvchanlik va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni talab qiladi.

Tizimlilik va izchillik. Ona tili o'qitishning asosiy vazifasi talabalarni tilga oid bilimlar yig'indisi bilan qurollantirib qolmay, ulardagi bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirishdan iboratdir

Tizimda tizimlilik bilan izchillik uzviy bog'lanadi. O'quv ishlarida puxta o'ylab tuzilgan rejasiz ko'ngildagidek natijaga erishib bo'lmaydi. Fan asoslari izchil o'rganilmas ekan, o'rganilgan, o'rganilayotgan va o'rganiladigan bilimlar mantiqiy bog'lanmas ekan, oldingi bilimlarni hisobga olish, nutqiy tayyorgarlikka tayanish ham bo'lmaydi. Tizimlilik va izchilik tamoyili o'zbek tili o'qitishda alohida o'rin tutadi. Bu tamoyil ona tili bilimlarini tartib bilan o'rgaishdan tashqari, o'zlashtirish jarayonini ham yengillashtiradi. Shuning uchun ham dastur va darsliklar tuzishda ushbu tamoyilga qat'iy amal qilinadi.

Maktabda ona tilini fonetika va grammatika, leksika, so'z yasalishi, morfologiya, sinaksis vapunktuatsiya tartibida o'tqizish tizimlilik va izchilik tamoyiliga mos tushadi. Talabalar fonetika va grafika haqida ma'lumot olgach, leksikani o'rganishadi. So'z haqida ma'lumot olgach, so'z yasalishi, so'z qurilishi haqida ma'lumot oladi. Bu so'z turkumlari haqida bilim olishga asos bo'ladi. Shu tariqa boshqa grammatik kategoriyalar davom ettiriladi. Bularning hammasi ta'limda izchillikdir.

Tizimlilik va izchilik tamoyiliga kundalik darsda ham amal qilinadi. Bunda o'tgan mavzu yangi mavzu bilan bog'lab tushuntiriladi. Bu hol talabalarning anglash faoliyatini yaxshilaydi, o'tilgan materialni ham esga olish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham har bir mavzuni boshlashdan oldin o'tgan mavzu so'raladi. Natijada, yangi mavzu bilan o'tgan mavzu orasida bog'lanish yuzaga keladi. Bu tamoyilni amalda tatbiq qilish ta'lim mzmunini takomillashtirishda o'quv-biluv ishlarida faollikni oshirishda muo'im ahamiyatga ega.

Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Tilning ijtimoiy hayotdagi o'rni beqiyosdir. Chunki til bo'lmasa jamiyat ham, ijtimoiy hayot ham bo'lmaydi. Maktab jamiyatning kelgusi a'zolarini tarbiyalab yetishtiradi: Jamiyat a'zolarining nutqiy savodxonligini oshirish bugungi kun talabidan kelib chiqadi. Maktabni bitirgan o'quvchi ijtimoiy hayotdan o'rin oladi. Shuning uchun

ona tili ta'limining yangilangan mazmuni ta'lim jarayoni tuzilishining maqsadi, vazifasi, bayon etish usullarini belgilab berishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bilimlarning puxtaligi va ongli o'zlashtirilganligi amaliy ko'nikmani hosil qiladi.

Talabalarning grammatika, orfografiya va punktuatsiyaga oid nazariy bilimlari bilan amaliy tayyorgarligi orasida farq bo'lishi mumkin. Tilning qonun qoidalarini bilgan holda unga amal qilmagan o'z fikrini ona tilida mustaqil ravon, go'zal va lo'nda ifodalay olmagan o'quvchi (mutaxassis) ning amaliyotdan tayyorgarligi past (sust) hisoblanadi. Toki, fransuz yozuvchisi R.Rollan ta'kidlaganidek; "Gap – iloji boricha ko'proq bilim to'plashda emas – gap shundaki, bu bilim ko'pmi yoki ozmi, tanho seniki bo'lishi, u qoning bilan yo'g'rilishi, sening erkin va mustaqil harakatingni mevasi bo'lishi zarur". Ijodiy fikrlash fikrni og'zaki va yozma shaklda ravon, chiroyli, adabiy til me'yorlarida ifodalash vositasidir. Shuning uchun ham nutq madaniyatini rivojlantirish ona tili o'qitishning bosh maqsadi, deb qaralmog'i kerak. (G A., N. H. 46-bet)

Shu nuqtai nazardan fikrni turli sharoitlarda bayon eta olish, bir ma'noni turli ko'rinishlarda to'g'ri ifodalay olish, zaruriy ish qog'ozlarini yoza olish malakalarini shakllantirish lozim. Badiiy, ilmiy, ijtimoiy adabiyotlar haqida fikr yuritish, shaxsiy munosabatlarni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri ifodalash mdaniyatini, boshqalar bilan muloqatda ona tilining go'zal va rang-barangligini namoyish qilish kabi amaliy ko'nikamalarni hosil qilish lozim. Shuningdek, mantiqiy tafakkurni o'stirish o'qituvchining muntazam vazifasiga aylanmog'i lozim. Buni amalga oshirish uchun:

- grammatik qonun-qoidalar asosida og'zaki va yozma nutqni tartibga solish;
- til hodisalarini kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish asosida xulosa chiqarishga o'rgatish;
- imloviy, punktuatsion va uslubiy masalalarni hosil qilish maqsadida matn tuzishga o'rgatish;
- til materiallarini yiriklashtirish, tejalgan vaqt hisobidan amaliy ishlarni ko'paytirish;
- ijodiy fikrlashni talab qiladigan noan'anaviy o'quv topshiriqlaridan, o'quv qo'llanmalaridan unumli foydalanish kerak bo'ladi.

"O'lka materiallarini o'rganamiz", "So'z mulkiga sayohat", "Bu kim, bu nima?" kabi ruknlar bilan devoriy gazetalar chiqarib, unga maqolalar yozish mumkin. Bunday ishlarni to'g'ri qo'llash orqali nazariy bilimlarni o'zlashtirish va amaliy darslarning samaradorligini oshirish mumkin.(A.L.78-bet)

Muhokama. O'qitishda ko'rgazmalilik tamoyili. Ona tili predmetining tabiati ko'rgazmalilikni ko'proq talab qiladi. Tildagi mavhumlik, umumlashtirish, uning mohiyatini anglash va ongli o'zlashtirish ko'rgazmali vositalar yordamida jonli va qiziqarli bo'ladi. "Siz talaba ga qandaydir 5 ta noma'lum so'zni o'rgating, u bu so'zlarni bilib olguncha uzoq vaqt ketadi va behuda bosh qotiradi. Lekin suratlar vositasida o'rgatilgan 20 ta so'zni o'quvchi hash-pash deguncha o'rganib oladi",-deb yozadi K.D.

Ushinskiy (Tan.as. 1954, 429-bet). Fransuz ma'rifatparvari J.J. Russoning: “ Bir soatlik ish bir kunlik tushuntiruvdan ko'ra ko'proq narsa beradi, chunki men talaba ni ustaxonada mashg'ul qilar ekanman, uning qo'llari aqli uchun ishlaydi: u o'zini bor-yo'g'i hunarmand hisoblagan holda faylasufga aylanadi”,-degan so'zlari yuqoridagi fikrga hamohangdir.

Onglilik, faollik va mustqillik tamoyili. Didaktik adabiyotlarda o'rganilayotgan mavzuni asosli egallash, mavzu yuzasidan bilimlarni sistemali va to'g'ri bayon qilish, o'rganilgan bilimlardan turmushda foydalana olish, aql-idrok va tushunchaga egalik tushuniladi. Bu tamoyil til hodisalarining mohiyatini anglab, ongli o'zlashtirishni talab qiladi.

Onglilik tamoyili o'quvchida ona tili o'qitishning asosiy maqsadini to'g'ri anglash bilimlarni ongli o'rganish va o'zlashtirish, mustahkamlash kabi xususiyatlarni tarbiyalaydi.

Ona tili materiallarini ongli o'zlashtirish o'qituvchi oldiga qator talablarni qo'yadi:

A) O'quv materialining talabalar yosh xususiyatlari va bilim saviyasiga mos kelishi;

B) O'rganilgan materialni o'rgailadigani bilan uzviy bog'lash;

V) O'rganilgan grammatik tushunchalarni chuqur anglash va o'rni kelganda ularni izohlash;

G) Darslarni ma'lum bir sistemada olib borish;

D) Tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurol va texnik vositalardan unumli foydalanish kabilar. (T.B.,Sh. M.,Z.T. 76-bet)

Xulosa. Onglilik ta'lim jarayonida talabalarning faollik ko'rsatishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchi dars jarayonida ongli o'zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatda bemalol foydalanishi mumkin. Ta'limda faollik va mustaqillik o'zaro uzviy bog'langan kategoriyalardir. Har qanday faollik asosida aqliy faoliyat yotadi. Mustaqillikka nisbatan faollik kengroq tushunchadir. Faollik deganda o'quvchining ham o'qish, ham mehnat, ham ijtimoiy topshiriqlarni bajarishni nazarda tutamiz, O'quv faolligi umumiy faollikning bir qismi, Bilish faolligi talaba faoliyatining mahsulidir. Faollik bazasida mustaqillik yuzaga keladi, ya'ni o'zgalar ishtirokisiz mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Назаров К., Егамбердиев Б. О'zbek tili ishora-imlo qoidalari. – Toshkent, 1996. – 120 b.
2. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. О'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2010. – 256 b.
3. Фуломов А., Қодиров М., Егамназарова М., Бобомуродова А., Алавутдинова Н., Каримжонова В. Она tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. – 310 b.
4. Фуломов А., Неъматов Ҳ. Она tili ta'limi mazmuni. – Toshkent, 1995. – 200 b.
5. Мухиддинов А.Г'. О'quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent, 1995. – 180 b.
6. Абдуллаев Й. Statistika nazariyasi. – Toshkent, 2002. – 224 b.
7. Абдурахмонова Ҳ. Mashina tarjiması. – Toshkent, 2008. – 150 b.
8. Абдухамидова Л. Tilshunoslikning yangi yo'nalishi: kompyuter lingvistika. – Toshkent, 2015. – 280 b.